# PROFESSIONAL TA’LIMDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO‘LLARI

**Yusupova Shoira Nurutdinovna**
Toshkent viloyati Chinoz tuman 2-son kasb hunar maktabi YOBIBDO‘

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada o‘qituvchilik faoliyatiga yangi innovatsion texnologik jarayonlar bilan baholab tahlil qilishga harkat qildik. O‘qituvchi tarbiyalovchi, bilim beruvchi, kasb o‘rgatuvchi ijodkor ziyolidir. O‘qituvchilik mashaqqati bilan unga berilgan sermazmun hayot sinovlari bugungi globallashayotgan dunyoning eng murakkab kasb jarayonlaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Biz aynan mana shu jaryonga o‘z sehrli mo‘yqalamlarimiz orqali tahlil qilishga harkat qildik.
**Kalit so‘zlar:** Axloq, vatan, pedagogik mahorat, ijtimoiy burch, vatanparvarlik burchi, ta’lim-tarbiya.
**Аннотация:**В данной статье мы попытались оценить и проанализировать педагогическую деятельность с применением новых инновационных технологических процессов. Учитель – это творческий интеллектуал, который воспитывает, дает знания, обучает профессии. Жизненные испытания, данные ему тяготами преподавания, показывают, что это один из самых сложных профессиональных процессов в современном глобализованном мире. Мы попытались проанализировать этот ток с помощью наших волшебных кистей.
**Ключевые слова:** Этика, Родина, педагогическое мастерство, общественный долг, патриотический долг, воспитание.
**Annotation:**In this article, we tried to evaluate and analyze pedagogical activity using new innovative technological processes. A teacher is a creative intellectual who educates, gives knowledge, and teaches professions. The life tests given to him by the hardships of teaching show that this is one of the most difficult professional processes in today's globalized world. We tried to analyze this current with our magic brushes.
**Key words:** Ethics, Motherland, pedagogical skills, public duty, patriotic duty, education.

Sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoiyligiga, uning yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir. O‘qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o‘qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Hozirda ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayitgan bosh islohatlardan kutiladigan natija avvalo, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va barkamol avlodni shakllantirish masalasi har bir pedagog oldiga ma’suliyatli vazifalarni qo‘yadi. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Mana shunday imkoniyatlardan samarali foydalanib, zamon talabini his yetmasdan, eskicha ishlashga endi hech birimizning xaqqimiz yo‘q. Xalqimiz bugun katta orzu-umidlar bilan yashayapti. Bu orzu istaklarni kim amalga oshiradi? Avvalo, mana shu zalda o‘tirgan rahbarlar, mutasaddi va mutaxassislar, navqiron yoshlarimiz. Buning uchun bizda kuch va imkoniyat, bilim va salohiyat ham, qat’iy iroda, intilish va azmu shijoat ham yetarli”.

Umuminsony va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o‘z vazifasini to‘liq bajarishi boshqalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. O‘z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro‘, shon-sharaf keltiradi. Kishining o‘z burchiga sodiqligi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo‘lgan munosabatida bilinadi.

Pedagogik mahorat (PM)-bu o‘quvchining ustoz-murabbiylik fazilatlari, o‘qituvchilik kasbining sirlarini chuqir egalanmaganligi, insoniylik va iste’dodi hamda intelektual salohiyati



https://wordlyknowledge.uz

va shu kabilari asosida undagi kasbiy bilim, tushincha, koʻnikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati. PMdan koʻzlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat boʻlib, u oʻqituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda oʻqituvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichidan kimga nimadir tushinarsiz boʻlganligini tezda (Oʻz vaqtida)ilgʻay olish qobilyatiga bogʻliq boʻladi. PMni oʻqituvchida kamida quyidagi qobilyatlar mujassam boʻlmogʻi lozim: - oʻqituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak; - oʻqituvchi oʻz ta'lim oluvchilarini iloji boricha oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha bir xil fikrga keltira olishi kerak; - oʻqituvchi mavzu mohiyatini toʻla ochib bera olishi kerak va kerak boʻlganda ularga bu mavzuning ular kasbiy faoliyatidagi oʻrni va roli haqida ham tushincha bera olish kerak; -dars davomida befarq holda qatnashayotgan oʻquvchini tezda dars mazmunini oʻrganishga jalb qila olish kerak; - oʻqituvchining darsini yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini taashkil etishini ham baholab borish va bu orqali oʻz dars oʻtish texnalogiyasini takomillashtirib borish imkonyatiga ega boʻlish; - oʻqituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar. Pedagogik mahorat bir qator komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya boʻyicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani oʻz ichiga oladi.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash oʻqituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga oʻrgatadigan gʻoyalar uning qalbidan joy olib dunyoqarashning asosi boʻlishi zarur. Har bir ishda, har bir masalada muallim oʻz burchiga sodiq, qat'iy prinsipli boʻlishi, har qadamda unga amal qilishi zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sugʻorilgan boʻlsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, oʻz xatti-harakatlarini nazorat qila bilish; insonparvarlik, oʻz qadr-qimmatini toʻgʻri baholay olishga imkon beradi.

Oʻqituvchi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sohasidagi oʻz burchini zoʻrlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki oʻz hayotining ma'nosi, ishonch va vijdon da'vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etish butun xalq va Oʻzbekiston davlatining buyuk kelajagi toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qilishni taqazo etadi. Davlat oldidagi burchni yuksak anglagan, mafkuraviy pok barkamol muallim insonga izzat-hurmatli, yoshlarga gʻamxoʻr, mehribon, boshqalarga yordam qoʻlini choʻzishga doimo tayyor turadigan kishidir. Oʻqituvchi axloqida burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun gʻamxoʻrlik qilishni talab etadi. Oʻqituvchi odobida vatanparvarlik burchi baynalmilalchilik tuygʻusi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Pedagogik va badiiy adabiyotlarda muallimning ijtimoiy burchni yuksak darajada anglashi oʻquvchining hayotida umrbod iz qoldirgan, uning hayot yoʻlini belgilashga sabab boʻlgan misollarni koʻplab uchratish mumkin. Quyida aynan mana shu masala koʻrsatib oʻtilgan:

Oʻqituvchilik burchi ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishga va muallimning shaxsiga nisbatan jamiyat qoʻyadigan axloqiy talablar va yoʻl-yoʻriqlar majmuidir. Oʻquvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan xushmuomala, yaxshi munosabatda boʻlish, tanlagan kasb uchun pedagoglar jamoasi va jamiyat oldidagi ma'suliyatini his etish shular qatoriga kiradi. Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash oʻqituvchilik burchining asosini tashkil etadi.

Oʻqituvchilik burchining mazmuni ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda oʻquvchilar insoniyat asrlar davomida toʻplagan bilim, koʻnikma va malakalarni egallab oladilar. Shuningdek, oʻqitish jarayonida muallimning bajarayotgan ishiga munosabati ham, uning shaxsiy fazilatlari va qoʻyiladigan axloqiy talablari aks etadi. Oʻqituvchilik kasbini tanlagan kishi bu axloqiy talablar va yoʻl-yoʻriqlarni albatta bajarishi zarur.

Pedagogik amaliyotda muallimlar oʻz pedagoglik burchlarini bajarishga halol



https://wordlyknowledge.uz

intilsalar ham ish sharoitlari turlicha bo‘lgani uchun bir xil natijaga erishavermaydilar. Buning oqibatida shaxs bilan jamiyat o‘rtasida ma’lum darajada qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu kelishmovchiliklar turlicha bo‘lishi mumkin. Kishi o‘qituvchilik burchini anglasa ham biror shaxsiy mulohazaga ko‘ra o‘z burchini bajarishni istamasligi mumkin. Bunday hollar kamroq uchrasa ham umumiy ishga, o‘quvchilar tarbiyasiga zarar yetkazadi. Jamoatchilik ta’siri va ma’muriy yo‘llar bilan uni bartaraf etish lozim.

O‘qituvchining mas’uliyati-mas’uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta’lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas’uliyati yuklanadi. Muallim o‘quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, alohida yondashishi, unda mavjud bo‘lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o‘stirishi lozim.

O‘qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o‘z zimmalariga qanchalik yuksak sharafli mas’uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim. Oliy va o‘rta maxsus pedagogika o‘quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o‘quvchilarga o‘zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy axloqiy namuna ko‘rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

Pedagoglik ishida boshqa kasblarga nisbatan sub’ektiv faktlar har bir kishining sha’ni va shaxsiy qadr-qimmatini e’tiborga olish ko‘proq talab etiladi. O‘qituvchi, avvalo, o‘z qadr-qimmatini o‘zi saqlay bilmog‘i kerak, pedagoglar jamoasidagi urf-odatlar, an’analar, axloqiy munosabatlar ham o‘qituvchilik sha’ni va qadr-qimmatini asrashga qaratilmog‘i lozim. Pedagoglik sha’ni va qadr-qimmatini noto‘g‘ri tushunish ta’lim-tarbiya ishida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

O‘qituvchi odobida sha’n, qadr-qimmat tushunchasi o‘qituvchining pedagoglar jamoasida egallagan hurmatini bildiradi, shu bilan birga o‘quvchilar va ota-onalar orasidagi hurmatini ham ifodalaydi. Muallimning o‘quvchi qadr-qimmatini hurmat qilishi, o‘quvchilar orasida muallimning hurmati va qadr-qimmatini oshirish shartlaridan biridir. Pedagoglik burchi xatti-harakatlari pedagogik odob normalarining bu muallimdan o‘quvchilarda sha’ni va qadr-qimmat hissini ustirishni talab etadi. Bu, o‘z navbatida, tarbiyalanuvchilarga, o‘quvchilarga bo‘lgan hurmatni ularga nisbatan ishonch va talabchanlik bilan bog‘lab olib borishni taqazo qiladi.

Ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o‘qituvchining o‘zigagina emas, balki ota-onalar, kasbdoshlari bilan hamkorlikka ham bog‘liqdir. O‘qituvchilik vijdoni muallimni axloq qoidalariga o‘zi amal qilish bilan birga boshqalardan ham axloq normalarini bajarishni talab qilishga undaydi. Vijdonli muallim o‘zi yoki kasbdoshlari xato qilib qo‘yganidan hijolat tortadi, or-nomus qiladi. O‘qituvchi odobida bu tuyg‘u ayniqsa ko‘zga yaqqol tashlanadi. Haqiqiy pedagog kasbdoshi yoki o‘quvchisi sodir etgan qo‘pollikdan ham afsuslanadi, hijolat chekadi. Bunday emotsional holat bolaga kuchli tarbiyaviy ta’sir etadi. Or-nomus vijdonlilikning mezonidir.

O‘qituvchining ta’lim-tarbiya sohasida ijtimoiy qimmatli xatti-harakatlari adolat mezoni bilan baholanadi. Adolatli muallim, odil ustoz degan nomga sazovor bo‘lish har bir o‘qituvchining sharafli burchidir. Bunda muallimning ishchanlik va axloqiy fazilatlari o‘z ifodasini topadi. Adolatlilik boshqalarga yaxshilik qilish fazilati bilan chambarchas bog‘liq. Adolat bo‘lmasa, yaxshilik bo‘lmaydi. Shuningdek yaxshiliksiz adolat ham bo‘lmaydi. Pedagogik odob nuqtai-nazaridan adolatlilik, bu, ta’lim-tarbiya jarayonini normal amalga oshirishning sharti hamdir. Pedagoglik ishida adolatli bo‘lish bu o‘quvchining ishonchini qozonishdir. Buning uchun esa bolaning qalbidagini, dilidagini bilmoq, tushunmoq kerak.

Boshqa kasblarga qaraganda pedagogik faoliyat odobli bo‘lishni taqazo qiladi. Odatda, inson ahloqi uning odobida ifodalanadi. O‘qituvchining har bir so‘zi, har bir bosgan qadami ibrat, tarbiya, o‘rnakdir. Uning katta-kichiklar, o‘quvchilar bilan qanday



https://wordlyknowledge.uz

salomlashishi, kattalarga, kichiklarga, xotin-qizlarga munosabati, muomalasi, maktab oshxonasida ovqatlanishidan tortib, ko‘chada yurishgacha tarbiya omili hisoblanadi. Har bir ishni o‘z paytida, aniq bajarishi, bergan vadasining ustidan chiqishi, o‘zini tuta bilishi, irodasi, - bularning bachasi o‘quvchilar xulqiga ta’sir etibgina qolmay, bolalarda axloqiy fazilatlarning shakllanishiga ham yordam beradi.

**Adabiyotlar:**

1. M.M. Mirziyoyev.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-T: O’zbekiston, 2017.-B.54

2. Ishmuhammedov R. Ta’limda innovatsiya. – Toshkent:”Fan”, 2010.

3. Xo‘jaev N.Xasanboev J.Mamajonov I.Musaxonova G. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T, TDIU -2007.

WORDLY
KNOWLEDGE



https://wordlyknowledge.uz